SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**SIRDARYO VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2020-yil yanvar-oktabr

## Asosiy tarkib




**Yirik korxonalar**




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari**

## Dastlabki ma’lumotlar

Viloyat bo‘yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 932,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2,9 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 453,3 mlrd. so`mni (o‘sish sur’ati 24,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 479,4 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 93,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 134,4 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 41,9 % ) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda




## O‘sish (o‘zgarish) sur’atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mln. so‘m



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m



## UMUMIY MA’LUMOT

Viloyat bo‘yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 932,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 97,1 % ni tashkil etdi.

## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 36,8 % ulush bilan 1 079,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

| | |
|---|---|
| Guliston sh. | 1079,7 |
| Sirdaryo | 661,9 |
| Mirzaobod | 218,6 |
| Yangiyer sh. | 238,0 |
| Oqoltin | 190,4 |
| Sardoba | 112,9 |
| Boyovut | 127,0 |
| Sayxunobod | 91,8 |
| Xovos | 89,3 |
| Guliston | 82,6 |
| Shirin sh. | 40,5 |

Viloyatmiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 84,5 % va yirik korxonalar hissasiga 15,5 % to‘g‘ri keldi.

## ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,4 % ulush bilan 40,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

SIRDARYO VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr







Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko‘ra, 2 479,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,6 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 84,5 % ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shirin sh (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (99,0 %), Sardoba (98,5 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan.



SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

SIRDARYO VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur’atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Guliston sh (102,2 %), Sirdaryo (98,1 %) va Sayxunobod (95,0 % ) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari,** foizda




| | **Jami,** mlrd. so‘m | **2019-yil yanvar-oktabr ylariga nisbatan,** foizda | **Yirik korxonalar,** mlrd. so‘m | **2019-yil yanvar-oktabr ylariga nisbatan,** foizda | **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik,** mlrd. so‘m | **2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **2 932,7** | **97,1** | **453,3** | **124,8** | **2 479,4** | **93,4** |
| **Guliston sh.** | 1079,7 | 102,2 | 357,1 | 119,3 | 722,6 | 95,4 |
| **Shirin sh.** | 40,5 | 87,7 | 0,3 | 87,6 | 40,2 | 87,7 |
| **Yangiyer sh.** | 238,0 | 92,4 | 18,4 | 87,8 | 219,6 | 92,8 |
| **Boyovut** | 127,0 | 92,2 | 4,1 | 207,6 | 123,0 | 90,5 |
| **Guliston** | 82,6 | 91,7 | 2,3 | 86,1 | 80,3 | 91,9 |
| **Mirzaobod** | 218,6 | 94,8 | 36,5 | 467,7 | 182,2 | 81,8 |
| **Oqoltin** | 190,4 | 91,3 | 1,7 | 60,6 | 188,7 | 91,7 |
| **Sardoba** | 112,9 | 92,1 | 1,7 | 69,4 | 111,1 | 92,5 |
| **Sayxunobod** | 91,8 | 95,0 | 2,9 | 78,8 | 88,9 | 95,7 |
| **Sirdaryo** | 661,9 | 98,1 | 27,5 | 133,1 | 634,4 | 97,0 |
| **Xovos** | 89,3 | 91,1 | 0,9 | 165,6 | 88,4 | 90,7 |

SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

SIRDARYO VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr

## Yirik korxonalar

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda







## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda









Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 24,8 % ga o‘sdi va 453,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,5 % ulushiga to‘g‘ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 2 479,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,6 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,5 % ni tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)

**SIRDARYO VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2020-yil yanvar-oktabr




Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Shirin shahri (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (99,0 %), Sardoba (98,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 15,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahri (33,1 %) Mirzaobod (16,7 %), Yangiyer shahrida (7,7 %) kuzatildi.



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 443,7 ming so'm (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 4,7 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (90,4 %) hamda Sayxunobod tumani (93,5 %), Guliston (89,6 %), Boyovut (90,7 %), Xovos (89,5 %), Oqoltin (89,5 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (11 864,5 ming so'm), Yangiyer shahri (5 471,9 ming so'm) va Sirdaryo (5 134,7 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




## SIRDARYO VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr

| | **Hajm,** ming so'm | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** % da |
|---|---|---|
| **Slirdaryo viloyati** | **3 443,7** | **95,3** |
| **Guliston sh.** | 11 864,5 | 100,5 |
| **Shirin sh.** | 2 152,0 | 86,7 |
| **Yangiyer sh.** | 5 471,9 | 90,7 |
| **Boyovut** | 975,7 | 90,7 |
| **Guliston** | 1131,0 | 89,6 |
| **Mirzaobod** | 2 958,6 | 92,4 |
| **Oqoltin** | 3 640,5 | 89,5 |
| **Sardoba** | 1 702,3 | 90,4 |
| **Sayxunobod** | 1181,9 | 93,5 |
| **Sirdaryo** | 5 134,7 | 96,4 |
| **Xovos** | 930,6 | 89,5 |

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 134 414,2 mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 58,1 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 60 897,1 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 53,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 73 517,1 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 35,7 %) tashkil etdi.

## **Asosiy tarkib,** foizda




## **O'sish** (o'zgarish) **sur'atlari,** foizda




## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




## Eng yuqori ulushga ega hududlar



SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

SIRDARYO VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 60 897,1 mln. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida 73 517,1 mln. so‘mni tashkil etdi.



| | **Jami,** mln. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda | **Dehqon bozorlari,** mln. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda | **Chorva (parranda) bozorlari,** mln. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Siirdaryo viloyati** | **134 414,2** | **41,9** | **60 897,1** | **53,1** | **73 517,1** | **35,7** |
| **Guliston sh.** | 47 955,0 | 51,4 | 33 766,3 | 55,8 | 20,0 | 26,7 |
| **Shirin sh.** | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Yangiyer sh.** | 12 940,6 | 38,1 | 5 238,0 | 63,5 | 0,0 | 0,0 |
| **Boyovut** | 8 679,8 | 38,9 | 3 681,8 | 51,1 | 6 334,3 | 72,2 |
| **Guliston** | 8 354,5 | 55,2 | 1 153,7 | 91,6 | 15 758,0 | 46,5 |
| **Mirzaobod** | 6 389,2 | 42,7 | 0,0 | 0,0 | 4 084,9 | 57,4 |
| **Oqoltin** | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Sardoba** | 10 186,4 | 48,8 | 1 653,3 | 96,3 | 18 140,4 | 19,8 |
| **Sayxunobod** | 8 094,2 | 56,8 | 5 792,6 | 55,7 | 20 302,7 | 38,5 |
| **Sirdaryo** | 23 642,3 | 37,2 | 7 535,8 | 31,6 | 27,6 | 35,9 |
| **Xovos** | 8 172,2 | 44,7 | 2 075,7 | 133,9 | 8 847,1 | 77,3 |

** Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shmagan holatda*
** Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
## DEHQON BOZORLARI

**SIRDARYO VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2020-yil yanvar-oktabr

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 60 897,1 mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (20436,9 mln. so‘m) to‘g‘ri keldi.

712,0 mln. so‘m

**Tuzlamalar**

20 436,9 mln. so‘m

**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

1560,2 mln. so‘m

**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)

11 004,4 mln. so‘m

**Non va non mahsulotlari**

847,6 mln. so‘m

**Ziravorlar**

7 519,9 mln. so‘m

**Tovuq go‘shti**

6618,3 mln. so‘m

**Sut va sut mahsulotlari**

764,1 mln. so‘m

**Tuxum**

8 024,5 mln. so‘m

**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar)

1 074,4 mln. so‘m

**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar**

2 334,7 mln. so‘m

**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari** (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
## CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI



2020-yilning yanvar-oktabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 73 517,1 mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 58 801,6 mln. so‘mni, qo‘y va echkilar 11 557,5 mln. so‘mni, otlar 3 055,2 mln. so‘mni, parrandalar 102,6 mln. so‘mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quyidagi ko‘rsatkichda o‘z aksini topgan:



SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

SIRDARYO VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-oktabr

## **Asosiy tarkib,** foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 621,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 15,9 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 237,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 51,4 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1 383,4 mlrd. so'mni ( 5,6 % ga kamayish) tashkil etdi.

## **O'sish** (o'zgarish) **sur'atlari,** foizda




## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




## Eng yuqori ulushga ega hududlar



# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida o’tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlariga ega hududlar, Shirin shahri (109,1 %) Yangiyer shahri (108,3 %), Oqoltin tumanida (108,2 %) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o‘sish sur’atlari,** foizda




| | **Jami,** mlrd. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda | **Yirik korxonalar,** mlrd. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda | **Kichik tadbirkorlik subyektlari,** mlrd. so‘m | **2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan,** foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **1 621,2** | **84,1** | **237,7** | **51,4** | **1 383,4** | **94,4** |
| **Guliston sh.** | 548,4 | 94,5 | 42,6 | 69,6 | 505,8 | 97,5 |
| **Shirin sh.** | 284,7 | 109,1 | 0,0 | 113,7 | 284,7 | 109,1 |
| **Yangiyer sh.** | 58,5 | 108,3 | 0,0 | 0,0 | 58,5 | 108,3 |
| **Boyovut** | 41,2 | 41,3 | 29,5 | 33,2 | 11,7 | 106,8 |
| **Guliston** | 54,0 | 88,0 | 11,7 | 56,9 | 42,2 | 103,7 |
| **Mirzaobod** | 136,9 | 96,7 | 39,3 | 185,9 | 97,6 | 81,0 |
| **Oqoltin** | 39,4 | 108,2 | 23,9 | 113,8 | 15,5 | 100,6 |
| **Sardoba** | 33,2 | 44,8 | 30,4 | 42,4 | 2,9 | 108,1 |
| **Sayxunobod** | 67,6 | 47,8 | 32,2 | 29,5 | 35,4 | 109,7 |
| **Sirdaryo** | 306,7 | 74,6 | 15,3 | 40,2 | 291,4 | 78,1 |
| **Xovos** | 50,6 | 75,1 | 12,8 | 41,7 | 37,7 | 103,1 |

SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

**SIRDARYO VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2020-yil yanvar-oktabr







Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko‘ra, 1 383,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 5,6 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 85,3 % ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Sirdaryo (95,9 %), Mirzaobod (71,3 %), Guliston (78,2 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan. Eng past ulush esa Sardoba (8,6 %) tumaniga to‘g‘ri keldi.


**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (67) 225-19-70**